

MUROJAAT SHAKLLARINING LISONIY VA IJTIMOYIY XUSUSIYATLARI (Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” asari misolida)

Soliyeva Xusnidaxon Hasanboy qizi,
University of Business and Science Filologiya fakulteti
Til va adabiyot ta’limi o‘qituvchisi
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
husnida201@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18340541>

Annotatsiya. Mazkur maqolada sotsiolingvistika fanida muhim o‘rin tutuvchi murojaat shakllarining diskursiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Murojaat birliklarining mavhum va konkret turlari, ularning nutqdagi funksional vazifalari, ijtimoiy muhit va tarixiy davr bilan bog‘liqligi yoritiladi. Tadqiqot materiali sifatida Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” asari tanlanib, undagi murojaat shakllari sotsiolingvistik jihatdan o‘rganiladi. Murojaat birliklarining strukturaviy ko‘rinishlari, hissiy-ekspressiv imkoniyatlari va kommunikativ ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Sotsiolingvistika, murojaat shakllari, undalma, nutqiy munosabat, ijtimoiy muhit, “Qo‘rqma” asari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвистические и социальные особенности форм обращения в социолингвистике. Анализируются абстрактные и конкретные формы обращения, их функциональная роль в речи, связь с социальной средой и историческим контекстом. Материалом исследования послужил роман Джавлона Жовлиева «Кўрқма», в котором формы обращения изучаются с социолингвистической точки зрения. Раскрываются структурные особенности обращений, их эмоционально-экспрессивные возможности и коммуникативная значимость.

Ключевые слова: социолингвистика, формы обращения, обращение, речевая коммуникация, социальная среда, произведение «Кўрқма».

Abstract. This article examines the linguistic and social characteristics of forms of address within sociolinguistics. The study analyzes abstract and concrete forms of address, their functional roles in speech, and their relationship with social environment and historical context. Javlon Jovliyev’s novel “Qo‘rqma” is used as the main research material, and the forms of address found in the work are analyzed from a sociolinguistic perspective. The structural features, emotional-expressive potential, and communicative significance of address forms are revealed.

Keywords: sociolinguistics, forms of address, vocative, speech interaction, social context, “Qo‘rqma”.

Kirish. Sotsiolingvistika fanida murojat shakllari - bu kishi o‘zi suhbat mobaynida suhbatdoshiga murojaat qilish uchun qo‘llaydigan so‘zlardi. “Murojaat birovga qarata aytilgan gap, qilingan da’vat va chaqiriq hisoblanadi. Murojaat esa nutq bilan bog‘lanadi va harakatdagi hodisani ataydi, hodisani harakatga bog‘lab ifodalaydi. U tashqi lingvistika uchun obyektidir. Murojaat qanday obyektga yo‘naltirilgan bo‘lishi bilan sotsiolingvistika doirasiga kiradi.

Adabiyotlar tahlili. Murojaat uyushmagan holda ham, yoyiq holda qo‘llanganda ham birdan ortiq bo‘lishi mumkin, undalmadagi izohlovchilar ham murojaatdir. Murojaat tushunchasi ijtimoiy-mantiqiy kategoriya bo‘lib, qachon, qay vaziyatda, kimga va nima

munosabat bilan, qanday tarzda kabi mazmun va funksiyalari sotsiologiyada o'rganiladi. [1,10] Murojaat o'sha so'zlardagi davr va muhitni ham aks ettiradi. Murojaat birliklarining Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" romanidagi tarixiy diskursiv tahlilini qilishni oldimizga maqsad qilib oldik. Asarda "ota, ona, bobo yoki momo kabi so'zlar qarindoshlik ma'nosida qo'llaniladi, lekin ular har xil jamiyat va davrni ifodalaydi. Ya'ni, momo so'zi oldingi davrda buvi so'ziga nisbatan qo'llaniladi. Ota, ona so'zlari esa hozirgi kunda iste'molda faqat adabiy tildir. Ularning shevalarda turli variantlarini kuzatish mumkin. Asarda ham bu ota-onalarning Papoy va mamoy shakllari mavjud. Asarning bosh qahramoni bobosi buvisi qo'lida qoladi va uning amakisi universitetga borib onasini mamoy shaklda otasini papoy shaklda murojaat qilganini kuzatamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. "Amakilarim o'likning hurmatiga "Momom" deb yig'lardi "Ena" demasdilar. Murojaat shakllari obyektning aniq yoki noaniqligiga ko'ra ikki turga ajratiladi:

a) mavhum murojaat shakllari (ey, hoy, sen, siz);

Hoy baraka topgurlar to'xtanglar.

Sen kelajakka yo'l ko'rsatding. Sen - tarixsan.

Siz kulishni yaxshi ko'rasizmi

b) konkret murojaat shakllari.

Murojaatning bu turida ism, laqab, taxallus, insonga xos bo'lgan belgi-xususiyat bildiruvchi leksik, insonni atovchi nominativ birliklar murojaat shakli vazifasini bajaradi. Asarda mavhum murojaat shakllari quyidagilarni keltirish mumkin. Ota momo, kuyov aka uka qassob mulla dehqon cho'pon-cho'liq amakim kenja janob ona doktor kabi. Konkret murojaat shakllaridan ustod, Ulug' Kursdosh, to'ng'ichim, sag'irim, kenjam traktorchim, suvchim, hisobchim, aka, telefonchi, qiztaka qoravoy, jo'ra, jo'rajon ona, domlam kabi tarixiy murojaat shakllari mavjud.

Ijtimoiy funksiyaga ega murojaat so'zlar esa 6 turga – ijtimoiy murojaat, munosabatni anglatuvchi, mansab va darajani anglatuvchi, kamtarlik va hurmatni ifodalovchi, yaqinlikni ifodalovchi hamda hazil murojaat so'zlaridir.

"Xalqingdan kimda-kim kiprigimcha bosh ko'tarsa, kallasini olib kelinglar", - degan Stalin bobo, "O'zim sho'rva qilib simiraman, iligini shopkosoga solaman" , - degan." [2,31]

Asarda tarixiy antropomim Stalinning nomini keltirish, unga bobo murojaati shaklida keladi. Bobo otaning otasiga nisbatan qo'llaniladigan murojaat birlik hisoblanadi. Asarda bobo orqali unga nisbatan qo'rquv va hurmat ma'nolari ifodlangan.

Ma'no va tushunchasiz til mavjud bo'lmaydi. Kishilar o'z murojaat va munosabatlari ana shu ma'noga asoslanadilar. Aks holda til o'z vazifasini bajara olmaydi, u o'zining asosiy vazifasini faqat ma'no va tushunchalar tufayli bajaradi, har qanday xabar, ma'lumot ma'no hamda tushuncha asosida shakllanadi va yuzaga chiqadi.

Inson va jamiyatning o‘zi ham ma’no va tushunchalar, til va nutq tufayli mavjuddir. Agar “...jamiyatning barcha a’zolari uchun umumiy va tushunarli til bo‘lmasa, jamiyatdagi ishlab chiqarish to‘xtaydi, jamiyat sifatida yashash tugaydi va u parchalanib ketadi” [1,43] “Kuloq” misiz?- g‘alati ijirg‘anish bilan jirkanib qaradi u quloqlarimga. [Jovliyev J., 2020: 33]

Tahlillar va natijalar. Asardagi butun mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsak asarning bosh qahramoni 70 talabani kim sotganini, kim ularga kuloqlik qilganini bilishni maqsad qilib olgan. Shu nuqtai nazaridan asarda bosh qahramon Murodiyini so‘rab-surishtirib yurgani sababli uni ham kuloq yani sotqin deb shubha qilishadi.

XIX asrning uchinchi choragida mamlakat taxtiga chiqqan Medze o‘ta ma‘rifatparvar va kelajakni ko‘ra biladigan imperator edi. U yapon ertasini o‘ylab, har yili ko‘plab yoshlarni Olmoniyaga o‘qishga jo‘natdi. [2,137]

Bundan tashqari undov so‘zlar ham murojaat shakllari sifatida qo‘llangan. Masalan ey, o‘vv, bola, yo Olloh.

Murojaat ifodalovchi birliklar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarning aksariyatida murojaatning strukturaviy xususiyatlari va uning ifodalanish usullari ko‘rib chiqilgan. Struktura jihatdan kam uchraydigan va keng tarqalgan murojaatlar farqlanadi. Murojaat bir so‘zdan iborat bo‘lsa, uyushmagan, ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lsa, uyushgan hisoblanadi. Murojaatlar bir so‘zdan iborat bo‘lishi yoki uyushiq bo‘laklar yordamida ifodalanishi mumkin. Bunday holda murojaatlar bo‘linishi mumkin. Bir so‘zdan iborat murojaat birliklari takror tarzda qo‘llash orqali so‘zlovchi ba’zi hollarda hissiylik va ekspressivlikka erishadi. Agar adresant bir vaqtning o‘zida bir nechta odamga murojaat qilsa, u holda bir vaqtning o‘zida bir nechta murojaat ishlatiladi. Bunday murojaat birliklari, murakkab murojaat birliklaridan farqlanib, uyushgan murojaat birliklarida undash obyekti ko‘p, murakkab murojaat birliklarida esa murojaat qilinayotgan obyekt bitta bo‘ladi. Murojaat shakllari va ularning ijtimoiy munosabatlarni ifodalashdagi o‘rniga bag‘ishlangan eng klassik namunaga aylangan va ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan ilk tadqiqot 1960 yilda Broun va Gilman tomonidan nashr qilingan. Broun va uning hamkasblari (Braun va Gilman 1960; Braun va Ford, 1961) xulosasiga ko‘ra, murojaat shakllari eng avvalo so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatga ko‘ra tanlanadi va bu munosabat ikki semantik hajm va o‘lchov orqali tahlil qilinishi mumkin: bular “kuch” (status, mavqe) va “yaqinlik”.

Do‘stlar, mo‘tabar o‘lkamiz naqadar shavkatli tarixga ega ekanligini, bu xalq ne-ne zotlarni yetishtirgan. [2,17]

Xulosa. Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, qo‘rqinch, gina, iltifot, nafrat kabi ma’no ottenkalari qo‘shilgan holda ifodalanishi – eng avvalo ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog‘liq. Til esa ana shu munosabatni qanday bo‘lsa o‘shanday, asliga mos holda ro‘yobga chiqishi uchun vosita bo‘ladi. Odatda, murojaat shakli haqida gapirilganda, eng avval, tinglovchi nazarda tutiladi. Aslida bu

murojaatning ikkinchi obyektidir. Tinglovchi ham ijtimoiy – mantiqiy obyekt sifatida, ham lingvistik obyekt sifatida bir-biriga to‘la mos tushadi: tinglovchi – sen, ya’ni ijtimoiy shaxs sifatida – o‘zga. Buning nutqdagi ifodalanishi – mantiqiy-grammatik shakllanishi ham o‘zga, ya’ni ikkinchi shaxs, birlik yoki ko‘plik. Bu ijtimoiy o‘zga – grammatik ikkinchi shaxs so‘zlovchining ziddi bo‘lib, u fikr qabul qiluvchi sifatidagi ijtimoiy figuradir – nutq va u orqali ifodalanayotgan fikr unga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Курбонова М. Гендеролингвистик тадқиқ янги парадигма сифатида // ЎТА, 2014. №2.
2. Jovliyev J. “Qo‘rqma” Toshkent:2020
3. Сафаров Ш., Боймирзаева С. Гендер тилшунослиги ва матн тадқиқи //Хорижий филология, 2006. №4.
4. Akbarova Z. O‘zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi . Toshkent 2007
<https://zenodo.org/records/15516783>

